



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA INNAVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Kuchkorova N.*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) 1-bosqich magistranti*

**Tayanch so'zlar:** ona tili va o'qish savodxonligi, FSMU, innovatsion, texnologiya, interfaol uslublar, axborot texnologiyalari.

**Ключевые слова:** родной язык и читательская грамотность, ФСМУ, инновационные технологии, интерактивные методы, информационные технологии.

**Key words:** native language and reading literacy, FSMU, innovative, technology, interactive methods, information technologies.

### **РЕЗЮМЕ:**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan innavatsion pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish usullari ko'rsatib o'tilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В данной статье показаны методы использования инновационных методов на родном языке и на занятиях по чтению в начальных классах.

### **SUMMARY:**

In this article, the methods of using innovative methods in the native language and reading literacy classes of primary grade are shown.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonning turli rivojlangan mamlakatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim sohasida o'zaro hamkorlik qilishi juda katta yuqlarga olib kelmoqda.

Ma'lumki, fan va ta'lim doimo birgalikda rivojlanadi. Ta'lim tizimimni yanada yuksaltirish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimini chuqur o'rgangan holda zamonaviy metod va texnologiyalar asosida o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonida interfaol uslublar, innavatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayonida qo'llashga bo'lgan talab tobora kuchayib bormoqda. Maktab- ta'lim va tarbiyaning asosiy poydevoridir. Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi". Bugungi kunda ta'lim sohasiga

qaratilayotgan e'tibor o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Bunga yaqqol misol 2019-yil 26-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab"larni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2030-yilgacha maktablarning 50%ini zamonaviy maktablarga aylantirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi.

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.** Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl, va vositalarining majmuasi tushuniladi. Boshlang'ich sinfdagi ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi.

Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

"Baliq skeleti" texnologiyasi Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi. Masalan, yo'l harakati darslarida "Yo'l qoidalari" mavzusida "Svetofor nima uchun kerak?" muammosi qo'yilsa, bolalar o'z fikrlari bilan baliq skeletini boyitib boradilar. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi. ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi.



**Tahlil va natijalar.** Innovatsion va pedagogik texnologilarning ta'lim sohasiga kirib kelishi bugungi kunda ta'lim tub burulish yasadi chunki, bu jarayon ham o'qituvchidan ham o'quvchidan ijodkorlikni talab etadi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarni kreativ fikrkaushga, ijodkorlikka, shaxsiy va mustaqil fikrkaushga ega bo'lishiga undamoqda. Bundan tashqari o'qituvchilarni ham o'z ustida yana ko'proq ishlashga dars o'tish jarayonida yangiliklar yaratishga undamoqda. Aslida pedagog ya'ni bola yetaklovchi o'quvchilarga bilishi kerak bo'lgan ma'lumotni tayyor holatda yetkazmasligi kerak, balki o'quvchilarni yanada kengroq fikrkaushga, o'yalshga, atrof-olamni o'rganish imkoniyatlarini beruvchi yo'lni ko'rsata olishi kerak. Hozirgi kunda asosiy pedagogik texnologiyalar bu kognitiv, emperik, everestik, kreativ, adattiv va shu kabi boshqa texnologiyadir. Bu texnologiyalarning dars mavzusiga mos ravishda tanlay olish esa o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir.

FSMU texnologiyasi munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozarali vaziyatlarni hal etishda yoki o'quv-seminar yakunida yoki bitta bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, sababi bu texnologiya o'quvchilarning o'z fikrini himoya qilishga, mustaqil va erkin fikrkaush, o'z fikrini boshqalarga asosli ifodalashga, dars jarayonida egallagan bilimlarini tahlil qilishga hamda fikr almashish madaniyatini o'ragatadi. Bu texnologiya o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etadilar. FSMU ni o'tkazish texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi.

1-bosqich ;

-o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni yoki o'rganilishi kerak bo'limni tanlab oladi;

-o'qituvchi darsda avval har bir o'quvchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va dars ohirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi;

-dars davomida har bir o'quvchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkinligi haqida aytiladi.

2-bosqich;

-har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasi haqida ma'lumot berilgach, texnologiyaning 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi.

F (fikringizni bayon eting);

S (fikringiz bayoniga sabab ko'rsating);

M (ko'rsatilgan fikringizni isbotlab misol ya'ni dalil ko'rsating);

U (fikringizni umumlashtiring).

Har bir o'quvchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozga FSMU ning 4 bosqichiga yozma ravishda javob beradi.



3-bosqich;

-har biro`quvchi o`z qog`ozlariga javoblarini yozib bo`lganda so`ng, o`qituvchi ularni kichik guruhlariga bo`ladi.

-o`qituvchi har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog`ozlarni tarqatadi;

-o`qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog`ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo`yicha yozilishini taklif etadi.

4 -bosqichda:

-kichik guruhlarda avval har bir o`quvchi o`zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a`zolarini tanishtirib o`tadi. Guruh a`zolarining barcha fikrlari o`rganilgach, kichik guruh a`zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

-guruh a`zolari FSMU ning 4 bosqichini har biri bo`yicha umumlashtirib uni himoya qilishga tayyorgarlik ko`radilar;

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir o`quvchi o`z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5 -bosqichda;

-kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarni himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o`qiydi (iloji boricha izoh bermagan holda). Ba`zi bo`limlarni isbotlashi, ya`ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o`tishi mumkin.

6-bosqichda;

-o`qituvchi darsga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o`z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan o`quvchilarga murojaat qiladi:

a) Ushbu dars yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarni o`rgandingiz?

b) Ushbu dars qanday samara berdi?

s) Ushbu mavzu o`quvchilarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

Izoh: Yuqorida keltirilgan savollar o`qituvchi tomonidan har bir darsning mazmuni, maqsadidan kelib chiqqan holda o`quvchilarga berilishi mumkin.

Masalan :

Mavzu :Fe`l ustida ishlash (3-sinf)

F(fikringizni bayon eting) :nima qildi ?, nima qilyapti?, nima qiladi? kabi so`roqlarga javob bo`lib predmet harakatini bildirgan so`zlarga fe`l deyiladi.Fe`l gapda kesim vazifasida keladi.

S (fikringiz bayoniga biron sabab ko`rsating) : Fe`l gapda harakat ma`nosini ifodalab keladi.

M(Ko`rsatilgan sababni isbotlovchi misol keltiring) :1.Sumayya yozgi tatilda saohatga ketmoqchi. 2.O`qituvchi darsni tushuntiryapti.



U(Fikringizni umumlashtiring) :Fe'l-shaxs yoki narsalarning harakatni bildiruvchi so'z turkumlari va shu turkumga oid har bir so'z.Fe'l zamonlari o'tgan zamon, kelasi zamon, hozirgi zamon.Yuqoridagi misollarga e'tibor qarating. Ketmoqchi-kelasi zamoni ifodalamoqda, tushuntiryapti esa hozirgi zamoni ifodalab kelmoqda.

**Muhokama va xulosa.** Innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi.O'quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko'lamida puxta singdirib borishimiz kerak. Bunda biz o'qitishda yangi ped texnologiyalardan,innovatsion g'oyalardan, interfaol uslublar va kreativ yondashuvlardan o'rinli ravishda o'z vaqtida foydalana bilishimiz lozim. O'quvchilar biz yaratgan innovatsiyalar orqali yetarli bilim egallaydi,deb o'ylayman.Darslarda qo'llaniladigan turli didaktiko'yin mashqlarimiz o'quvchilar uchun juda qiziqarli va esda qolarli bo'ladi. Masalan, "Yosh aktyorlar", "Quvnoq quyunchalar", "Bu meniki", "Charxpalak", "Zanjir", "Davom ettir", "Maqollar zanjiri", "Sinkveyn" metodi, "Venn diagrammasi", "Zig-zag" texnologiyasi, "Topib o'qi" kabi usul va ta'limiy metodlardan foydalanar ekanmiz darsimizda yanada ko'p samaraga erisha olamiz.

Darslarni innovatsion metodlardan foydalangan holda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va mazmunli o'tishini, o'quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Pedagogning kreativligi va ijodkorligi o'z-o'zidan rivojlanib qolmaydi.Uning ijodkorlik qobilyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish,o'z ustida ishlash, kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish, yangi-yangi g'oyalarni yaratishga faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar hususida fikr almashish orqali shakllantiriladi. Qolaversa,kreativ faoliyat salohiyat negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiyatlari,tabiiy va ijtimoy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

#### Adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi"2017.02.07.
2. K.Qosimova va b."Ona tili o'qitish metodikasi",Toshkent, "Nosir" nashriyoti.2009.B.205-209.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf.Toshkent-2022-y.
4. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubi (Uslubiy qo'llanma) – Qarshi: 2011
5. Shayxislamov N. (2021). Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish masalalari. 160-162.